

**“O’zbek adabiy tili
tarixi” fanidan amaliy
mashg’ulot ishlanmalari**

1- mavzu	”Devonu lug’otit-turk” va “Qutadg’u bilig” asarlari matnining lisoniy tahlili
-----------------	--

1.1. Amaliy mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O’quv mashg’ulotining shakli	Vizual amaliy mashg’ulot
Amaliy mashg’ulotining rejasi:	1. O’zbek adabiy tili tarixining ilk davri. 2. «Devonu lug’otit-turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati. 3. «Qutadg’u bilig» asarining tili va uslubi. 4. «Devoni lug’otit turk» va «Qutadg’u bilig» asarlari tahlili
O’quv mashg’ulotining maqsadi: o’zbek adabiy tili tarixining ilk davri, «Devonu lug’otit-turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati, «Qutadg’u bilig» asarining tili va uslubi, «Devoni lug’otit turk» va «Qutadg’u bilig» asarlari matnining tahlili orqali o’tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O’quv faoliyatining natijalari
- o’zbek adabiy tili tarixining ilk davri yuzasidan savol-javob o’tkazish orqali bilimlarini sinash; - «Devonu lug’otit-turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati haqida bilimlarini sinash; - «Qutadg’u bilig» asarining tili va uslubi haqida munozara tashkil etish; - «Devoni lug’otit turk» va «Qutadg’u bilig» asarlari matnining tahlili ustida ishlash;	- savol-javob o’tkazish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadi; - «Devonu lug’otit-turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati haqidagi savollar orqali bilimlarini mustahkamlaydilar; - «Qutadg’u bilig» asarining tili va uslubi haqida tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma’lumotlarni o’zlashtiradi; - «Devoni lug’otit turk» va «Qutadg’u bilig» asarlari matni tahlili ustida ishlash orqali, ularning leksik-grammatik xususiyatlari haqida bilimlarini mustahkamlaydi;
O’qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, “Filobingo” mashqi, klaster
O’qitish vositalari	Projektor, slaydlar

O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash, frontal
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar axboroti tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. O'zbek adabiy tili tarixining ilk davri yuzasidan savol-javob o'tkazish. 3.2. «Devonu lug'otut-turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati haqida bilimlarini sinash. 3.3. «Qutadg'u bilig» asarining tili va uslubi haqida munozara tashkil etadi. 3.4. «Devoni lug'otut turk» va «Qutadg'u bilig» asarlari matnining tahlili ustida ishlanadi.	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. «Devonu lug'otut-turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar. 3.3. «Qutadg'u bilig» asarining tili va uslubi haqida tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma'lumotlarni yodga oladi. 3.4. «Devoni lug'otut turk» va «Qutadg'u bilig» asarlari matni tahlili ustida ishlab, ularning leksik-grammarik xususiyatlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi..	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida

	4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.
--	---	---

1-ilova

FILLOBINGO

A. “DLT” topilgan shahar? B. “DLT”ni o'zbekchalashtirgan? D. “DLT” necha tomida? E. Turkiy tildagi harflar miqdori F. She'riy pandnoma asar? G. “Qutadg'u bilig” nusxalari haqidagi fikr muallifi? J. “QB”dagi timsollar? H. “QB”ni o'rgangan rus olimlari? I. “Qutadg'u bilig”ni o'rgangan o'zbek olimlari?		
A. Ism. Fan.	B. Ism. Fan.	D. Ism. Fan.
E. Ism. Fan.	F. Ism. Fan.	G. Ism. Fan.
J. Ism. Fan.	H. Ism. Fan.	I. Ism. Fan.

2-ilova

TEST BILAN ISHLASH

1. Turkiy tillar birinchi marta kim tomonidan tasnif qilingan?

- A. A. Yugnakiy
- B. M. Qoshg'ariy
- D. A. Navoiy
- E. Z. M. Borbur

2. «Devoni lug'otit turk» da bilan yordamchisining qaysi formasini qo'llaydi?

- A. birla B. bila D. ila E. bilan

3. Yu.Xos Hojib «Qutadg'u bilig»da kuch-quvvat so'zini qaysi ma'noda qo'llagan?

- A. Imkoniyat B. mol-mulk D. boylik E. imorat

4. «Devonu lug'otit –turk» asari kim tomonidan va qachon o'zbek tilida nashr etilgan?

- A. S. Mutallibov. 1960-1963 yillar
- B. P. Shamsiev 1970 yil
- D. H. Sulaymonov 1965-1967 yillar
- E. O. Sharofiddinov 1982 yil

3-ilova

Refleksiya- aks ettirish

O'tilgan mashg'ulotni qayta yodga olish

1-mavzu: "Devonu lug'ot-it-turk" va "Qutadg'u bilig" asarlari matnining lisoniy tahlili

1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

4. Eski turkiy adabiy tili yodgorliklariga qaysi qaysi manbalarni kiritamiz?
5. «Devoni lug'atut turk» asarining muallifi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
6. «Devoni lug'atut turk» asari va uning tili haqida gapiring?
7. «Qutadg'u bilig» asari muallifi haqida ma'lumot bering.
8. «Qutadg'u bilig» asarida adabiy til me'yor masalasii qanday?

2. Tahlil uchun matndan misollar: (berilgan matnlar leksik va morfologik tahlil qilinadi).

1. Keldi menga tat,
Aydim emdi yat,
Qushqa bo'lub at,
Seni tilar as bo'ri.

Mazmuni: "Menga bir tot keldi; unga men: ët, qushlarga em bo'l, qushlar, qurtlar seni kutaëtirlar, (deb uni o'ldirdim)". (DLT. I tom, 72 –bet).

2. Alp er To'nga o'ldimu,
Esiz ajun qaldimu,
O'zlak o'chin aldimu,
Emdi yurak yirtilur.

Mazmuni:

Alp Er To'nga (Afrosiëb) o'ldimi, YAramas dunë qoldimu, Dunë undan o'chini oldimi, Endi ioraklar uning uchun yaralanmoqda. (DLT. I tom, 77 –bet).

3. Ko'rklug to'nug' o'zunga,
Tatlig' ashig' azinqa,
Tutg'il qo'nuq ag'irlig',
Yazsun yavin buzunqa.

Mazmuni: "Ko'rkam, chiroyli to'ning o'zinga, shirin ovqatingni boshqalarga ata; qo'noq- larni hurmatla, toki, shuhrating el-iortga taralsin". (DLT. I tom, 80-bet).

4. Bardi ko'zum yaruqi,
Aldi o'zum qo'nuqi,
Qanda erinch qaniqi,
Emdi uzun uzg'urur.

Mazmuni: "Ko'zimning nuri ketdi, mening ruhimni ham olib ketdi. U hozir qaerda ekan? Endi meni uyqudan uyg'otadi". (DLT. I tom, 81 –bet).

5. Aning ishin kechurdum,
Eshin yima qachurdum,
O'lum o'tin ichurdum,
Ichti bo'lub yuzi tarin.

Mazmuni: "Uning ishini bitirdim, hamrohini ham qochirdim. O'lim og'usini ichirdim, iozini burishtirgan holda ichdi". (DLT. I tom, 82 –bet).

6. Bulnar meni ulas ko'z,
Qara mengiz qizil yuz.
Andin tamar tukal tuz,
Bulnap yana o'l qachar.

Mazmuni: Bu mast ko'zli (seviklim) porloq iozidagi ëqimli qora xoli bilan meni asir qiladi. Xuddi (go'zal) ënoqlaridan shirinlik tomaëtganday meni asir qiladi-da, so'ng mendan qochadi. (DLT. I tom, 92 –bet).

7. Qancha barding ay o'g'ul,

Erding munda inch amul,
Attin emdi sen to'nul,
Qilding ersa qilmag'u.

Mazmuni: Nega ketding, ey o'g'il, bu erda tinch va mamnun eding. Noloyiq ishni qilganing uchunsen endi otdan umidingni uz. (DLT. I tom, 104 –bet).

8. Uzu barib o'kush evdim,
Telim yurib kuchi kevdim,
Atim birla tegu evdim,
Meni ko'rib yesi ag'di.

Mazmuni: Uni izlab ketidan ko'p rordim, ko'p quvlab holdan toydirdim. Otim bilan tegrasida aylanib turgan edim, meni ko'rib esi og'di. (DLT. I tom, 179 –bet).

9. Eran alpi o'qushtilar,
Qing'ir ko'zin baqishtilar,
Qamug' tulmun tuqushtilar,
Qilich qinqa kuchun sig'di.

Mazmuni: Botir erlar (bir-birlarini) chaqirishdi, bir-birlariga ëmon ko'z bilan qarashdi, hamma jang qurollari bilan urishishdi, qilich(rozlari qon bilan qalinlashib) qinga kuch bilan (zo'rg'a) sig'di. (DLT. I tom, 192 –bet).

10. Qar, buz qamug' erushdi, Ko'kshin bulit o'rishdi,
Tag'lar suvi aqishdi, Qayg'uq bo'lib egrishur

Mazmuni: Qor va muzlar hammasi eridi, tog'larning suvi oqdi. Osmonda ko'k bulutlar paydo bo'ldi. Ular qayiqlar suvda o'ynaganiga o'xshab suzishadi. (DLT. I tom, 195 –bet).

11. Tabdu menga ilindi,
Emgak keru ulundi,
Qilmishina ilandi,
Tutg'un bo'lib o'l qatar.

Mazmuni: Tabdu (kishi ismi) manga asir bo'ldi, qiynalib azoblandi, qilgan ishiga pushaymon bo'ldi. Asir bo'lib siqilmoqda. (DLT. I tom, 212 –213 bet).

12. Izu berib bo'shuttum,
Tavar yo'lug' tashuttum,
Eran essin ashuttum,
Yukin barcha o'zi chag'di.

Mazmuni: Ozodlik berib bo'shatdim. (Bo'shatish uchun to'laydigan) mollarini o'ziga tashitdim, odamlarning ayblarini ëpib ketdim. Hamma yukini o'zi tashidi. (DLT. I tom, 217-218 –betlar).

13. Yigitlarig ishlatu,
Yig'ach yemish irg'atu,
Qulan keyik avlatu,
Bezram qilib avnalim.

Mazmuni: Yigitlarni ishlatib, daraxt mevalarini qoqtiraylik, turli ëvvoyi hayvonlar (qulon) va boshqalarni ovlatib, bir necha kun bayram qilib yayraylik. (DLT. I tom, 262 –bet).

14. Qo'lsa qali o'g'rayin,
Bergil taqi azuqluq,
Qarg'ish qilur umalar,
Yunchig' ko'rub qo'nuqluq.

Mazmuni: Qo'noq senga so'ranib kelsa, oziq-ovqat berib kut, agar mehmondo'stlik ëmon bo'lsa, mehmon qarg'aydi. (DLT. I tom, 272 –bet).

15. Qush yavuzi sag'izg'an,
Yig'ach yavuzi azg'an,
Yer yavuzi qazg'an,
Budun yavuzi barsag'an.

Mazmuni: Qushning eng yaramasi, ëvuzi zag'izg'on, daraxtning eng yaramasi azg'on daraxti... Erlarning yaramasi o'nqir-cho'nqir er... Odamning yaramasi Barsag'onda turuvchilardir. (DLT. I

tom, 411-412 –betlar).

16. Bayat kimka bersa inayat ulug,
Tilakka tegir Bo'ldi atlig' kulug.

Mazmuni:

Xudo kimga inoyat nasib qilsa, U tilagiga etadi va maълumu mashhur bo'ladi. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 310-311- betlar).

17. Mungar mengzatu aydi turkcha masal
Bashinda kechurmish bu ko'kchin saqal.

Mazmuni:

(Ushbu) turkcha masalni shunga o'xshatib aytgan, Boshidan kechirgan bu oqsaqol. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 310-311 - betlar).

18. Butun so'z bo'lur tegma yerda ko'ngul
Ko'ngul butmasa erka artuq mung-ul.

Mazmuni:

Har bir erda ko'ngil ishonchsiz bo'ladi, Ko'ngil ishonmadimi, bu kishiga ortiqcha tashvishdir. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 358-359- betlar).

19. Javiqmish kur alp er yema so'zlamish,
Er o'drum kerak su to'lumlug temish.

Mazmuni:

Dong'i ketgan qo'rqmas botir ham aytgan: Sara yigitlar, qurollangan lashkar kerak, degan. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 382-383- betlar).

20. Qayu bag'qa tegsa suv eksumadin,
Chechak yazlur anda tuman tu yidin.

Mazmuni:

Qaysi boqqa suv tegsa, u kam bo'lmaydi, Unda tuman turli hidlar bilan gullar ochiladi. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 310-311- betlar).

21. Neku ter eshit emdi bilga tengiz,
So'zin berkitur emdu qizg'u mengiz.

Mazmuni: Bilimi dengiz kabi (keng kishi) nima deydi, eshit, So'zini sir tutuvchi erug' rozli kishi: ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 128-129- betlar).

22. Amullug siliglik uqush qilqi-ul,
Uquhsiz kishilar qamug' yilqi-ul.

Mazmuni: Sokinlik va shirin so'zlik – zakovatli kishining sifati, Zakovatsiz kishilar tugal yilqidir. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 142-143- betlar).

23. Mungar mengzatu aydi shair bu bayt,
Ishing butsa evma sabr birla et.

Mazmuni: Bunga o'xshatib shoir ushbu baytni aytibdi: Ishing bo'lsa shoshilma sabr bilan qil. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 142-143- betlar).

24. Menga ayg'il emdi na-ul erdaming,
Bedug so'zladi so'z bu o'gdam tiling.

Mazmuni: Menga endi aytib ber, samъat-hunaring qay darajada, Sening o'ktam tiling juda qimmatli so'zlarni so'zladi. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 156-157 - betlar).

25. Bag'irsaq uchun sen butar-men senga,
Bag'irsaqliqin ay bu so'zlar menga.

Mazmuni: Sadoqatli bo'lganliging uchun senga umid bog'layman, Sadoqat bilan bu so'zlarning (maъnisini) menga aytib ber. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 330-331 - betlar).

26. Belinglab udundi ko'turdi bashin,
Qara zangi qilmish yuzini eshin.

Mazmuni: Cho'chib uyg'ondi, boshini ko'tardi, Qora habash yuzini pardalabdi (yaъni zulmat ketib tong erisha boshlabdi). ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 512-513 - betlar).

27. Xatarlig' turur dunya nushi ag'u,
Arig'in tila barcha ichgu yegu.

Mazmuni: Dunë xatarlidir, (uning) nushi og'ru (dir), Barcha ichgu (lik), egu (liklarning) tozasini ista. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 714-715 - betlar).

28. Hava arzu bo'yni simag' incha o'z,

Ko'nilik yo'linga kirumas et-o'z.

Mazmuni: Havas, orzu bo'yni (yaxshi) sindirilmaguncha, Tanu jon to'g'rilik yo'liga kira olmaydi. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 714-715 - betlar).

29. Ajun barcha butru tugal artadi,

Ko'rub tangladachi qani bir muni.

Mazmuni: Borliq olam butunasiga tugal buzildi, Birorta buni ko'rib hayratlanuvchi (odam) qani. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 930-931 - betlar).

30. O'vutsuz qulung-men yazuqim telim,

Tuzunluk seningdin kelur belgura.

Mazmuni: Uyatsiz qulingdirman, gunohim talaydir, YAxshilik sendangina belgi berib keladi. ("Qutadg'u bilig". T. 1972 y. 950-951 310-311- betlar).

3. "Filobingo" mashqi:

A) "DLT" topilgan shahar? E) Turkiy tildagi harflar miqdori nusxalari haqidagi fikr muallifi? H) "QB"ni o'rgangan rus olimlari?			B) "DLT"ni o'zbekchalashtirgan? F) She'riy pandnoma asar? I) "QB"ni o'rgangan o'zbek olimlari?			D) "DLT" necha tomda? G) "Qutadg'u bilig" J) "QB"dagi timsollar?		
A. Ism. Fan.			B. Ism. Fan.			D. Ism. Fan.		
E. Ism. Fan.			F. Ism. Fan.			G. Ism. Fan.		
H. Ism. Fan.			I. Ism. Fan.			J. Ism. Fan.		

4. Test bilan ishlash:

- Turkiy tillar birinchi marta kim tomonidan tasnif qilingan?
A. A. Yugnakiy B. *M. Qoshg'ariy D. A. Navoiy E. Z. M. Borbur
- «Devoni lug'otit turk» da *bilan* yordamchisining qaysi formasini qo'llaydi?
A. birla B. bila D. ila E. *bilan
- Yu.Xos Hojib «Qutadg'u bilig»da *kuch-quvvat* so'zini qaysi ma'noda qo'llagan?
A. *Imkoniyat B. mol-mulk D. boylik E. imorat
- «Devonu lug'otit -turk» asari kim tomonidan va qachon o'zbek tilida nashr etilgan?
A. *S. Mutallibov. 1960-1963 yillar B. P. Shamsiev 1970 yil
D. H. Sulaymonov 1965-1967 yillar E. O. Sharofiddinov 1982 yil

5. Mustahkamlash:

"Refleksiya" mashqi orqali o'tkazilgan mashg'ulot qayta yodga olinadi.

6. Uyga vazifa: "Hibat-ul-haqoyiq" va "Devoni hikmat" matnlarining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.

7. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

2- mavzu	“Hibat-ul-haqoyiq” va “Devoni hikmat” matnlarining lisoniy tahlili
-----------------	---


1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejasi:	1. “Hibat-ul-haqoyiq” asarining tili va uslubi. 2. XII asrdan keyingi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari 3. “Devoni hikmat” asari va uning tili. 4. “Hibat-ul-haqoyiq” va “Devoni hikmat” asarlari matni tahlili.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: “Hibat-ul-haqoyiq” asarining tili va uslubi, XII asrdan keyingi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari, “Devoni hikmat” asari va uning tili, “Hibat-ul-haqoyiq” va “Devoni hikmat” asarlari matni tahlili orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- “Hibat-ul-haqoyiq” asarining tili va uslubi yuzasidan savol-javob o'tkazish orqali bilimlarini sinash; - XII asrdan keyingi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari haqida bilimlarini sinash; - “Devoni hikmat” asari va uning tili haqida munozara tashkil etish; - “Hibat-ul-haqoyiq” va “Devoni hikmat” asarlari matni tahlili ustida ishlash;	- savol-javob o'tkazish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadi; - XII asrdan keyingi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari haqida bilimlarini mustahkamlaydi; - “Devoni hikmat” asari va uning tili haqida tashkil etigan munozara orqali kerakli ma'lumotlarni o'zlashtiradi; - “Hibat-ul-haqoyiq” va “Devoni hikmat” asarlari matni tahlili orqali bilimlarini mustahkamlaydilar test bilan ishlash orqali mavzu haqidagi bilimlarini mustahkamlab oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, “Savol bizdan, javob sizdan” mashqi, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya


1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. "Hibat-ul-haqoyiq" asarining tili va uslubi yuzasidan savol-javob o'tkazish. 3.2. XII asrdan keyingi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari haqida bilimlari sinalladi. 3.3. "Devoni hikmat" asari va uning tili haqida munozara tashkil etadi. 3.4. "Hibatul-haqoyiq" va "Devoni hikmat" asarlari tahlili ustida ishlash uchun matn beriladi.	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. XII asrdan keyingi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari haqida bilimlarini mustahkamlaydi. 3.3. "Devoni hikmat" asari va uning tili haqida tashkil etigan munozara orqali kerakli ma'lumotlarni o'zlashtiradi. 3.4. "Hibatul-haqoyiq" va "Devoni hikmat" asarlari tahlili ustida ishlaydi.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi.. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.


“Hibatul-haqoyiq” dostonini o’rgangan olimlarni aniqlang



“Hibatul-haqoyiq” dagi morfologik shakllar (“Savol bizdan, javob sizdan” mashqi)



Yassaviy “Hikmatlar”i tili haqida olimlar



2- mavzu. “Hibatul-haqoyiq” va “Devoni hikmat” matnlarining lisoniy tahlili

1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

1. “Hibat-ul-haqoyiq” asari qaysi davrda yaratilgan?
2. Asar nusxasi qachon, kim tomonidan topilgan?
3. “Hibatul-haqoyiq”ning fonetik xususiyatlari haqida fikringiz?
4. “Devoni hikmat” nusxalarining bir-biridan farqlanishiga sabab nima deb o'ylaysiz?
5. “Devoni hikmat” tili va sheva masalasiga qanday qaraysiz?

2. Tahlil uchun matndan misollar:

Bitidim kitobi mavoiz masal,
O'qusa totir til emishtak asal.
Kim ersa bu so'zga odinlar so'zin,
Tangasa tangadi durustqa badal.

Adib Ahmad otim, adab-pand so'zum,
So'zum munda qolur, borur bu o'zum.
Kelur kuz, kechar yoz, borur bu umr,
Tugatti umurni bu yozum, kuzum.

Onnin ush chiqartim bu turkcha kitob,
Kerak qil, teb ey do'st, kerak qil itob.
Bitidim bu tangsuq turof so'zlarin,
Xoli borsa o'zum otim qolsu teb.

Ayo, manda kedin keligli muni,
O'qusang duoda unutma mani.
Sanga adya qildim bu tangsuq kitob,
Manga adya qilsu duo, teb, sani...

Ta'olaalloh oshiq'larga berdi ishqin,
qo'shtim
Shokir bo'lib, o'rta b, yonib kuydim mano,
toshtum,
Ikki olam ko'zlarimga xashxosh dona-
Ko'runmadi, yolg'iz Haqni suydin mano.
mano.

Jondin kechib, yolg'uz Haqni jonga

Andin so'ngra daryo bo'lib, to'lub

Lomakonni sayr etibon, maqom oshtim,
Dunyo uqbin yuz ming taloq qo'ydim

Tariqatni yo'llarini uqbasi ko'p,
Pok ishqini qo'lga olmay bo'lmas yurib,
turmas,

Haq oldida aqli komil dam urolmas,
Ishq shiddati tug'yin qilsa, bir dam

Diydorini ko'rsa bo'lmas, tun-kun uyub,
bilmas,
Hech uxlamay, diydorini ko'rdim mano.

Parvonadek axgar bo'lur, o'zin

Bu sirlarni jononadan tuydim mano.

Tariqatni yo'li qattug, turfa shoshdim,
Boshim qotti, pari mug'on sari qochtim,
turob,
Pir egatin tutub, botin ko'zin ochdim,
harob,
Rasvo bo'lub, yo'llar kezib yurdim mano.
mano.

Tariqatni yo'llaridur qattig' azob,
Bu yo'llarda necha oshiq bo'ldi

Ishq yo'lig'a har kim kirsas, holi

Eranlardin yo'lni so'rab yurdim

Tariqatni yo'llaridir turfa ulug',
Ro'zi qilgan bandasiga bo'lg'ay yovug',
tashi,
Uchquniga toqat qilmas yeti tamug',

Haqiqatni ma'nosiga yetgan kishi,
Bexud bo'lub, kuyib yonar ichi,

Qonlar oqar ko'zlaridan, oqqan

yoshi,

Ey yoronlar, aziz jondin tuydim mano.
mano.

Ko'z yoshimni tuhfa qilib bordim

Shariatdur oshiqning afsonasi,
bo'lmas,

Orif oshiq tariqatning durdonasi,
o'lmas,

Qayda borsa jononasi hamxonasi,
bo'lmas,

Bu so'zlarni Arsh ustida ko'rdim mano.

Muhabbatni bog'in kezmay oshiq

Horliq, zorliq tortmaguncha nafsining

Bir qatrag'a qone' bo'lmay ul dur

Qone' bo'lib xas gavharin oldim mano.

3. "Savolbizdan, javob sizdan" mashqi:

A. "Hibat-ul-haqoyiq" da mayl qo'shimchalari? B. "Hibat-ul-haqoyiq" ning hajmi?
D. "Hibat-ul-haqoyiq" qanday asar? E. Asarda sifatdosh shakllari qanday holda
qo'llangan?
F. "Devoni hikmat" ni o'rgangan rus olimlari? G. "Devoni hikmat" qaysi asrlarda
to'plangan?
H. She'riy pandnoma asar? I. "Devoni hikmat" dagi arxaiik so'zlarga misollar
keltiring.
J. "Devoni hikmat" da so'z oxirida g' bilan keluvchi so'zlarga misollar bering.

A. Ism. Fan.	B. Ism. Fan.	D. Ism. Fan.
E. Ism. Fan.	F. Ism. Fan.	G. Ism. Fan.
H. Ism. Fan.	I. Ism. Fan.	J. Ism. Fan.

4. Test bilan ishlash:

1. Tilshunos A. K. Barovkov qaysi asrlarni o'z dialektidan y dialektiga o'tish davri deb ataydi?
A. X-XI B. X-XII D. X-XIII E. *X-XIV

2. korgil-korgin, salgil-salgin, qilg'il-qilg'in ko'rinishidagi so'zlarni qaysi asarda uchratish
mumkin?

A. «Qissasi Rabg'uziy» B. «Qutadg'u bilig» D. *«Devoni hikmat» E. «Qissai
Yusuf»

3. «Hibatul-haqoyiq» asarining muallifi?

A. A. YAssaviy B. M. Qoshg'ariy D. *A. Yugnakiy E. Xorazmiy

4. A. Yassaviy hikmatlarida uchraydigan *qayu, qamug', ilig, ay* so'zlari qanday ma'nolarni
anglatadi?

A. *Qaysi, hamma, qo'l, aytmoq
D. Jannat, vafo, mulk, ahd

B. Toza, gunoh, xudo, qanday
E. A va V javoblar

5. Qarluq -Xorazm adabiy tili sikliga kiruvchi manbalarni aniqlang.
- A. «Muhabbatnoma», «Rasmiy hujjatlar» B. *«Devoni hikmat», «Qissai Yusuf»
D. «Devoni hikmat», «Muhabbatnoma» E. Rasmiy hujjatlar, «Qissai Yusuf»
6. Qarluq-Xorazm adabiy tili qachondan rivojlandi?
- A. Xorazm davlati tashkil topganidan so'ng B. *Qoraxoniylar davlati qulaganidan so'ng
D. Chig'atoy davlati davrida E. Xiva xonligi davrida
5. Mustahkamlash:
- “Refleksiya” mashqi orqali o'tkazilgan mashg'ulot qayta yodga olinadi.
6. Uyga vazifa: «Muhabbatnoma» matnining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.
7. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

3- mavzu	“Qissasi Rabg'o'ziy” asari matnining lisoniy tahlili.
-----------------	--

1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vahti - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejasi:	1. Qarluq – xorazm adabiy tili haqida. 2. “Qissasi Rabg'o'ziy” asrining mavzusi xususida. 3. Asarning fonetik va morfologik tabiati. 4. “Qissasi Rabg'o'ziy” matnining lisoniy tahlili
O'quv mashg'ulotining maqsadi: qarluq – xorazm adabiy tili haqida, “Qissasi Rabg'o'ziy” asrining mavzusi xususida, asarning fonetik va morfologik tabiati, “Qissasi Rabg'o'ziy” matnining lisoniy tahlili bilan ishlash orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- qarluq – xorazm adabiy tili haqida savol-javob o'tkazish; -“Qissasi Rabg'o'ziy” asrining mavzusi xususidagi bilimlarini sinash;	- savol-javob o'tkazish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadilar; -“Qissasi Rabg'o'ziy” asrining mavzusi xususidagi bilimlarini bahsda qatnashish orqali o'zlashtiradilar;

- asarning fonetik va morfologik tabiatini aniqlash uchun kichik guruhlar tashkil etish; -“Qissasi Rabg’o’ziy” asarlari matni tahlilini o’tkazish;	- tashkil etilgan kichik guruhlar orqali asarning fonetik va morfologik tabiatini o’zlashtirib oladilar; -“Qissasi Rabg’o’ziy”asari matni tahlili ustida ishlash. Asarning fonetik va morfologik tabiati haqida kichik guruhlarda orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar;
O’qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, “Toifalash” mashqi, klaster
O’qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O’qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda ishlash
O’qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta’minlangan auditoriya


1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg’ulotni “Termometr” mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. “Ma’naviyat daqiqasi” o’tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma’lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O’quv faoliyatini baholash mezonlarini ma’lum qiladi.	2.1. Mashg’ulot etaplaridagi faoliyatiga ko’ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.) - orqali mavzu yuzasidan -“Qissasi Rabg’o’ziy” asrining mavzusi xususidagi bilimlarini sinash; - sh; -“Qissasi Rabg’o’ziy” asarlari matni tahlilini	3.1. qarluq – xorazm adabiy tili haqida savol-javob o’tkazadi. 3.2. “Qissasi Rabg’o’ziy” asrining mavzusi xususidagi bilimlarini sinaydi. 3.3. Asarning fonetik va	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. “Qissasi Rabg’o’ziy” asrining mavzusi xususidagi bilimlarini bahsda qatnashish orqali o’zlashtiradilar. 3.3. Tashkil etilgan kichik

o'tkazish;	morfologik tabiatini aniqlash uchun kichik guruhlar tashkil etadi. 3.4. "Qissasi Rabg'o'ziy" asarining tahlili uchun matn beradi.	guruhlarda ishlash natijasida asarning fonetik va morfologik tabiatini o'zlashtirib oladilar. 3.4. "Qissasi Rabg'o'ziy" asari tahlili ustida ishlaydi.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.

1-ilova

"TOIFALASH" MASHQI



-g'usi, -gay, -ibin, -duk, -ing, -ung, -garu, -mish, -uz, -gan, -qa, -n, -asi

2-ilova

TEST BILAN ISHLASH

1.«Qissai Rabg'uziy» asari tiliga xos xususiyatlarni aniqlang?

- A. Qissa janri asosida yozilgan, so'zlashuv tili elementlari ko'plab uchraydi.
- B. Xalq tiliga xos unsurlar diniy afsonaviy syujet asosida yozilgan.
- D. Qissalar «Qur'on» va boshqa diniy kitoblardagi syujetlar asosida yozilgan.
- E. Barcha javoblar to'g'ri

2. «Sulaymonning ul otlarga rag'batini bo'ldi. Eringa keldi...» Qaysi asardan olingan?

- A. «Qutadg'u bilig»
- B. «Qissasi Rabg'uziy»
- D. «Boburnoma»
- E. «Farhod va Shirin»

3. Mana na jazo bergusidir. Keltirilgan misolda qaysi zamon ko'rsatkichi bor?

- A. Kelasi zamon.
- B. Hozirgi-kelasi zamon.
- D. O'tgan zamon.
- E. Hozirgi zamon.

3-mavzu. “Qissasi Rabg'o'ziy” asari matnining lisoniy tahlili.

1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

- 1. “Qissasi Rabg'o'ziy” asarining mavzusi?
- 2. Asar qachon yaratilgan va unda nechta qissa bor ?
- 3. “Qissasi Rabg'o'ziy” ning fanetik xususiyatlari haqida gapiring.
- 4. Qissaning morfologik tabiati haqida ma'lumot bering.

2.Tahlil uchun matndan misollar:

Ul zamonim, Muhammadni bulut kelturdi. Amina o'g'longa emukin berayin tedi ersa olmadi. Otika aytur: “Muhammad sallallohu alayhi va sallam yalavoch bo'lg'andin so'ng so'rdum. “E rasulolloh, ul kun onang sutin naluk emmading?”. Aydi: onamdin ayrilurimni bilur erdim, sutin emmadim, rozin ko'rmayin tedim”. aymishlar, etti kun kechti, sut olmadi. Abdul Mutallib hayron qoldi. Amina ul qayg'udin og'rib o'ldi. Rasul otasiz erdi, onasiz qoldi. Eruq jahon Abdul Mutallib uza qorardi. “O'g'lum o'ldi, kelinim ham o'ldi. Otasiz, onasiz o'g'lonni man netak asrayin”, teb yig'ladi. Andin so'ng o'g'lonni doyaga berdilar.

Arabda bir qabila bor erdi, bani sa'd otlig'. Tekma yil ulardin urag'utlar kelib Makka xalqindin sut bergali o'g'lon eltur erdilar. Bu yil kelib o'g'lon oldilar. Muhammadni otasiz, onasiz teb kim ersa qabul qilmadi. Abul Mutallib ojiz bo'ldi. Bir avrat bani sa'd qabilasindin Halima otlig', eri Horis otlig', ukush tevasi bor erdi. Qamug'lari aning suti birla ovqat kechurur erdilar. Abdul Mutallib aydi: “Ey Halima, bu o'g'lumni olib sut bergil. Men senga oncha shafqat qiloyinkim, vaqting xush bo'lg'ay”. Halima aydi: “Ey sodati arab, o'g'lumni jon birla timor qiloyin. Agar narsa bersang, bermasang hurmating, izzating manga bas turur. Evga borg'il, so'nguncha borayin”, tedi.

3. “Toifalash” mashqi:



-g'usi, -gay, -ibin, - duk, -ing, -ung, -garu, -mish, -uz, - gan, - qa, -n, -asi

4. Test bilan ishlash:

1. «Qissai Rabg'uziy» asari tiliga xos xususiyatlarni aniqlang?
 - A. Qissa janri asosida yozilgan, so'zlashuv tili elementlari ko'plab uchraydi.
 - B. Xalq tiliga xos unsurlar diniy afsonaviy syujet asosida yozilgan.
 - D. Qissalar «Qur'on» va boshqa diniy kitoblardagi syujetlar asosida yozilgan.
 - E. *Barcha javoblar to'g'ri
2. «Sulaymonning ul otlarga rag'batini bo'ldi. Eringa keldi...» Qaysi asardan olingan?
 - A. «Qutadg'u bilig»
 - B. *«Qissasi Rabg'uziy»
 - D. «Boburnoma»
 - E. «Farhod va Shirin»
3. Mana na jazo bergusidir. Keltirilgan misolda qaysi zamon ko'rsatkichi bor?
 - A. *Kelasi zamon.
 - B. Hozirgi-kelasi zamon.
 - D. O'tgan zamon.
 - E. Hozirgi zamon.

5. Mustahkamlash:

“Refleksiya” mashqi orqali o'tkazilgan mashg'ulot qayta yodga olinadi.

6. Uyga vazifa: Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlarini matnining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.

7. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

4- mavzu	«Muhabbatnoma» matnining lisoniy tahlili
-----------------	---


1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'lotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejas:	1. XIV asrda o'zbek adabiy tilining nufuzi. 2. "Muhabbatnoma"ning nusxalari va asardagi nomalar. 3. Asarning til xususiyatlari. 4. «Muhabbatnoma» matnining lisoniy tahlili.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: XIV asrda o'zbek adabiy tilining nufuzi, "Muhabbatnoma"ning nusxalari va asardagi nomalar, asarning til xususiyatlari, «Muhabbatnoma» matnining lisoniy tahlili bilan ishlash orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- XIV asrda o'zbek adabiy tilining nufuzi yuzasidan savol-javob o'tkazish; - "Muhabbatnoma"ning nusxalari va asardagi nomalar haqidagi ma'lumotlarni aniqlash; - asarning til xususiyatlarini misollar orqali izohlash; - «Muhabbatnoma» asarlari matni tahlilini o'tkazish;	- savol-javob o'tkazish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadi; - "Muhabbatnoma"ning nusxalari va asardagi nomalar haqidagi ma'lumotlarni munozara orqali mustahkamlaydilar; - asarning til xususiyatlarini misollar orqali izohlanadi, undagi metafora, omonimlar, janubiy va g'arbiy tillarga xos xususiyatlarni o'zlashtiradilar; - «Muhabbatnoma» asari matni tahlili orqali bilimlarini mustahkamlaydilar;
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, "Savol bizdan, javob sizdan" mashqi, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya


1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. XIV asrda o'zbek adabiy tilining nufuzi yuzasidan savol-javob o'tkazadi. 3.2. "Muhabbatnoma" ning nusxalari va asardagi nomalar haqidagi ma'lumotlarni aniqlaydi. 3.3. Asarning til xususiyatlarini misollar orqali izohlaydi. 3.4. "Muhabbatnoma" asari tahlili uchun matn beradi.	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. "Muhabbatnoma"ning nusxalari va asardagi nomalar haqidagi ma'lumotlarni munozara orqali mustahkamlaydilar. 3.3. Asarning til xususiyatlarini misollar orqali izohlab, undagi metafora, omonimlar, janubiy va g'arbiy tillarga xos xususiyatlarni o'zlashtiradilar. 3.4. "Muhabbatnoma" asari tahlili ustida ishlaydi.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.


“Muhabbatnoma” tilida uchrovchi unsurlar



“Muhabbatnoma”ning nusxalari va o’zbek tilidagi nashri



“Toifalash” mashqi



-ni, -gach, -ali, -isar, -gach, -a, -g'ach, -na

4-mavzu. «Muhabbatnoma» matnining lisoniy tahlili.


1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

1. «Muhabbatnoma» asari qaysi davr mahsuli?
2. Asar qaysi tillarda yaratilgan?
3. Shoirning metafora va jonlantirish bilan bergan satrlariga misollar ayting?
4. «Muhabbatnoma»ning fanetik xususiyatlari haqida gapiring.

2. Tahlil uchun matndan misollar:

Tabassum qildi aydi “Ey faloni, Keturgil bizga loyiq armug’oni.	Ko’ngul bahrinda ko’p gavharlaring bor, Ochunda porsi daftarlaring bor.
Muhabbat nardiniko’plardin o’ttung, SHakartek til bila olamni tuttung.	Tilarmenkim bizning til birla paydo, Kitobi aylasang bu qish qotimda.
Kim ush eltek uchar ayēmi foni, Jahonda qolsa bizdin armug’oni.”	Qabul qildim er o’pdimaydim, ey shoh! Eshiking tuprog’i davlatli dargoh.
Kuchum etmishcha ko’p xizmat qiloyin, Jahonga neku otingni ēyayin.	Bu kun tongqa tekin may no’sh qilg’in, Badiha bu g’azalni go’sh qilg’il.
YAratqon kim tan ichra jon yarotti, Seni ko’rkluklar uzra xon yarotti.	Quēsh yanglig’ rozungni ērutti, Falaktek bizni sargardon yarotti.
Xaloyiq qiblası bo’ldi jamoling, O’shal kunkim seni yazdon yarotti.	Tulin oy ta’biya sarv uzra qildi, Oy ichra g’unchai xandon yarotti.
Jamolingni jahonga jilva qildi, Meni ul suratı hayron yarotti.	Eshitting ersa IOsufning jamolin, Seni husn ichra sad chandon yarotti.
Karim tangrı kamolin qılsa izhor, Sen oynı bo’yla benuqson yarotti.	Zihi qodir kim bir qatra suni, Muhabbat gavharinga kon yarotti.
Azaldin qildi Xorazmiyni muhtoj, Tog’i manzurini sulton yarotti.	Kitobat boshladim anjoma etgay, Muhabbatnoma Misru SHoma etgay.
Bu xon uzra saloi oma qildim, Muhabbatnomani o’n noma qildim.	Qiloyin ikki bobin porsiy ham, Kim atlas to’n yaroshur bo’lsa mu’lam.
Zihi arsloniorak Qo’ng’irot uruqi, Kichik ēshdin ulug’larning ulug’i.	Saodat ma’dani iqbol ganji, Muhammad Xo’jabek olam kuji.
O’sha jonsiz tan erdi mulk sensiz, SHahanshoh Jonibekxonga etansiz.	Sipohing taqviyatlar dinga berur, Faridun ganjini miskinga berur.
Sulaymon saltanatliq podsho sen, Masih anfoslik IOsuf liqo sen.	Oshar yeldan sening yilganda oting, Quēsh yanglig’ jahonni tutti oting.
Agar ming yil tirılsa Hotami tay, Sening oting eshitgach erlar o’pgay.	Erur davlatqa diydoring tafovul, Bo’luptur ta’batingg’o mushtariy qul.
Ulus tuttung qamuq aqling kuchindin, CHerikta qon tomar qamching uchindin.	Agar desam seni Rustam yararsen, Qiliching birla saflarnı ēarsen.

3. “Toifalash” mashqi:



-ni, -gach, -ali, -isar, -gach, -a, -g'ach, -na

4. Test bilan ishlash:

1. «Muhabbatnoma» da uchraydigan *shunqor, qatra, tapuq* so'zlarining ma'nosi?

A. *Burgut, tomchi, xizmat B. Ko'p, o'tloq, juda D. Uyalmoq, yigit, ot E. Tomchi, o'tloq, ot

2. «Muhabbatnoma» qachon va kim tomonidan o'zbek tilida nashr etilgan?

A. *A. Shcherbak 1959 yil B. S. Mutallibov 1963 yil D. V. Bartold 1945 yil
E. H. Zaripov 1940 yil

3. Ashar yeldin sening yelganda ating, Quyash yangliq jahanni tutti ating. (Xorazmiy.)
Ushbu misralarda qanday so'zlardan foydalanilgan?

A. Sinonim B. Antonim D. *Omonim E. Paronim

4. Aningkim ol enginda meng yaratdi, Bo'yi bila sochini teng yaratdi. Baytdagi **meng** so'zining ma'nosi nima?

A. Soch B. Qomat D. *Katta xol E. Ko'z

5. Mustahkamlash:

“Refleksiya” mashqi orqali o'tkazilgan mashg'ulot qayta yodga olinadi.

6. Uyga vazifa: “Qissasi Rabg'o'ziy” asari matnining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.

7. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

5- mavzu	Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari matnining lisoniy tahlili.
----------	--

1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejas:	1. XIV-XVI asrlar adabiy tili haqida. 2. Atoiy asrlarining tabiatiga doir ma'lumotlar. 3. Sakkokiyning o'zbek adabiy tili rivojida xizmatlari. 4. Lutfiy asrlarining ba'zi til xususiyatlari haqida. 5. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari matnining lisoniy tahlili.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: XIV-XVI asrlar adabiy tili haqida, Atoiy asrlarining tabiatiga doir ma'lumotlar, Sakkokiyning o'zbek adabiy tili rivojida xizmatlari, Lutfiy asrlarining ba'zi til xususiyatlari haqida, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari matnining lisoniy tahlili orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- XIV-XVI asrlar adabiy tili haqida savol-javob o'tkazish; - Atoiy asrlarining tabiatiga doir ma'lumotlarni aniqlash; - Sakkokiyning o'zbek adabiy tili rivojida xizmatlari yuzasidan kichik guruhlarda munozara tashkil etish; - Lutfiy asrlarining ba'zi til xususiyatlari bo'yicha kichik guruhlar tashkil etadi; -Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari matnining lisoniy tahlilini o'tkazish;	- XIV-XVI asrlar adabiy tili haqida o'tkazilgan savol-javob orqali mavzu yuzasidan bilimlarini sinaydilar; - Atoiy asrlarining tabiatiga doir ma'lumotlarni o'zlashtiradilar; - Sakkokiyning o'zbek adabiy tili rivojida xizmatlari yuzasidan tashkil etilgan kichik guruhlarda ishlash orqali bilimlarini mustahkamlaydilar; - Lutfiy asrlarining ba'zi til xususiyatlari bo'yicha tashkil etilgan kichik guruhlar faoliyati yordamida kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladilar; - Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari matnining tahlili orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar;

O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, kichik guruhlarda ishlash, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda va guruhlarda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. XIV-XVI asrlar adabiy tili haqida savol-javob o'tkazadi. 3.2. Atoiy asrlarining tabiatiga doir ma'lumotlarni aniqlaydi. 3.3. Sakkokiyning o'zbek adabiy tili rivojida xizmatlari yuzasidan kichik guruhlarda munozara tashkil etadi. 3.4. Lutfiy asarlarining ba'zi til xususiyatlari bo'yicha kichik guruhlar tashkil etadi. 3.5. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari tahlili uchun matn beradi.	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. Atoiy asrlarining tabiatiga doir ma'lumotlarga ega bo'ladi. 3.3. Sakkokiyning o'zbek adabiy tili rivojida xizmatlari haqida kichik guruhlarda ishlash orqali bilimlarini mustahkamlaydilar. 3.4. Lutfiy asarlarining ba'zi til xususiyatlari bo'yicha bilimlarini oshiradilar. 3.5. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari matnining tahlili ustida ishlaydi.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi..	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida

	4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.
--	---	---

1-ilova

KICHIK GURUHLAR UCHUN TOPSHIRIQ SHARTLARI

1-GURUH:

Eski o'zbek adabiy tili davri;

2-GURUH:

Atoiy asarlarida maqollar, omonimlar, hazil-mutoyibalarning qo'llanilishi;

3-GURUH:

Atoiy asarlari tilining morfologik va leksik xususiyatlari.

4-GURUH:

Sakkokiy asarlarida o'g'uz yoki g'arbiy adabiy tilning ta'siri masalasi;

5-GURUH:


Lutfiy asarlarida xalq ta'birlari, yumor, sinonimik qatordan foydalanilishi haqida;

6-GURUH:

Lutfiy asarlari tilida eski uyg'ur, ozarbayjon va turkman tillariga xos morfologik - leksik xususiyatlar.

2-ilova

**FIKRINGIZ QADRLI, BILISHINGIZ TAHSINGA LOYIQ
!**



3-ilova

Test bilan ishlash:

1. Atoiy g'azali qanchasi xalq qo'shiqlari vaznida yaratilgan?

A. 260 B. 210 D. 200 E. 109

2. Lutfiy asarlarida qanday so'zlar ko'p uchraydi?

A. Uyg'ur, arab B. Arab, fors-tojik D. Qipchoq, uyg'ur. E. A va V

3. Sakkokiy asarlarida keluvchi *ko'hkan*, *g'arat*, *tura* so'zlari hozirda qanday nomlanadi?

A. Tog' qo'poruvchi, kokil, barbod B. Kokil, jon oluvchi, go'zal.
D. Jon oluvchi, barbod, qiz. E. A va V javoblar

4. Chig'atoy tili qaysi tillar bazasida vujudga kelgan?

A. Qarluq va Xorazm tili B. Uyg'ur va chigil tili.
D Fors-tojik va arab tili E. Barcha javoblar to'g'ri

5. Lutfiy asarlari tilida qanday so'zlar ko'p uchraydi?

A Uyg'ur, ozorbayjon, turkman B Uyg'ur, arab, fors-tojik
D Uyg'ur, o'g'uz, arab E Barcha javoblar to'g'ri

6. «Mavlono Sakkokiy Mavvorounnahr dandur. Samarqand ahli ko'p muta'qadadurlar...» Ushbu fikr muallif ini toping?

A D. Samarqandiy B. Z.M. Bobur D. A. Navoiy E. A.

Yugnaqiy

7. Atoiy asarlarida qaysi til unsurlari ko'p uchraydi?

A Qipchoq B. O'g'uz. D. Uyg'ur E. Qarluq

8. Sakkokiy asarlarida qaysi til an'analari ning ta'siri kuchli?

A. Uyg'ur, arab B. Qorluq-chigil
D. O'g'uz, g'arbiy adabiy til E. Qipchoq, chig'atoy

9. Sakkokiy asarlarida keluvchi *bikin, yanglig'* so'zlarining ma'nosi?

A. Kabi, o'xshash B. Barbod, kokil D. Qolma, qilma E. O'xshash, kokil

5-mavzu. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari matnining lisoniy tahlili

1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

1. Nima uchun XIV-XVI asrlar adabiy tiliga nisbatan olimlar "chig'atoy tili" atamasi ishlatgan?
2. Atoiy asrlarining tabiati haqida ma'lumot bering.
3. Sakkokiyning o'zbek adabiy tili rivojida xizmati?
4. Lutfiy asarlarining ba'zi til xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

2. Tahlil uchun matndan misollar:

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uëttin anjumanda.

Tamanno qilg'ali laëlingni ko'nglum,
Kishi bilmas onikim, qoldi qanda.

CHu jonimdan aziz jonona sensen,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Manga ul dunëda jannat ne hojat,
Eshiging tuprog'i basdir kafanda.

Solib borma meni ey, Yusufi xush,
Bukun Yaqubtek bayt ul-hazanda.

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,
Ayoqing qanda bo'lsa, boshim anda.

Tilar el mansabi oliy va lekin,
Atoyi sarvi ozodimg'a banda.

Ko'ngul olding, begim, yoshirmog'ing ne?
Jafoni haddidin oshirmog'ing ne?

Raqiblarg'a qilur laëling tabassum,
Qonimni g'ussadin toshirmog'ing ne?

Ko'ngul shishasida mehring mayidir,
Jafu birla anga tosh urmog'ing ne?

Yururda eng birla og'zingnitutma,
Nimakim yo'q turur, yoshirmog'ing ne?

Atoyi, erga el zulfin tegurmas,
Qaro erga sening bosh urmog'ing ne?

Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: "CHirog' tubi qorong'u".

Tuturmen ko'zki, ko'rsam orazingni,
Ki derlar: "Oqqan ariqqa oqar suv".

Yuzungni tuttim ortuq oy-u kundin,
"Kishining ko'zidur, ore, tarozu".

Ko'zung qonimdin iymanmas, ajabtur,
Ki: "Qo'r qar, qaydakim qon ko'rsa hindu".
Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat,
Ki ayturlar: "Tilaganning- tilog'i".

Haq ul kunkinjamoling bor etibdur,
Jahon husnin borin senga beribdur.

Pari-yu odami mundoq xo'b ermas,
Farishta go'e ko'ktin enibdur.

Quësh oydek yuzungning xijlatidin,
Qochib, to'rtinchi ko'k uzra chiqibdur.

Yuzung nogah ko'rub oydek sog'indim,
Magar xush-u xirad mendin ketibdur.

Xirad ketmay netar mendek gadodin?
Qoshimg'a ul shahi xo'bon kelibdur.

Qilur da'vijo nur ul shami majlis,
Magar parvona shomimdin olibdur.

Necha bu Lutfiy qulg'a javr etarsen?
Vafo qilkim, jafo haddin oshibdur!

3. Kichik guruhlarda ishlash

Talabalar 6 guruhga bo'linadilar.

- 1-guruh: Eski o'zbek adabiy tili davri;
- 2-guruh: Atoiy asarlarida maqollar, omonimlar, hazil-mutoyibalarning qo'llanilishi;
- 3-guruh: Atoiy asarlari tilining morfologik va leksik xususiyatlari.
- 4-guruh: Sakkokiy asarlarida o'g'uz yoki g'arbiy adabiy tilning ta'siri masalasi;
- 5-guruh: Lutfiy asarlarida xalq ta'birlari, yumor, sinonimik qatordan foydalanilishi haqida;
- 6-guruh: Lutfiy asarlari tilida eski uyg'ur, ozarbayjon va turkman tillariga xos morfologik - leksik xususiyatlar.

4. Test bilan ishlash:

1. Atoiy g'azalining qanchasi xalq qo'shiqlari vaznida yaratilgan?
A. 260 B. 210 D. 200 E. *109

2. Lutfiy asarlarida qanday so'zlar ko'p uchraydi?
A. *Uyg'ur, arab B. Arab, fors-tojik D. Qipchoq, uyg'ur. E. A va V
3. Sakkokiy asarlarida keluvchi *ko'hkan, g'arat, tura* so'zlari hozirda qanday nomlanadi?
A. *Tog' qo'poruvchi, kokil, barbod B. Kokil, jon oluvchi, go'zal.
D. Jon oluvchi, barbod, qiz. E. A va V javoblar
4. Chig'atoy tili qaysi tillar bazasida vujudga kelgan?
A. *Qarluq va Xorazm tili B. Uyg'ur va chigil tili.
D Fors-tojik va arab tili E. Barcha javoblar to'g'ri
5. Lutfiy asarlari tilida qanday so'zlar ko'p uchraydi?
A *Uyg'ur, ozorbayjon, turkman B Uyg'ur, arab, fors-tojik
D Uyg'ur, o'g'uz, arab E Barcha javoblar to'g'ri
6. «Mavloni Sakko-kiy Mavvoroun -nahr dandur. Samarqand ahli ko'p muta'qada -durlar...»
Ushbu fikr muallif ini toping?
A D. Samarqandiy B. Z. M. Bobur D. *A. Navoiy E. A. Yugnakiy
7. Atoiy asarlarida qaysi til unsurlari ko'p uchraydi?
A *Qipchoq B. O'g'uz. D. Uyg'ur E. Qarluq
8. Sakkokiy asarlarida qaysi til an'analari ning ta'siri kuchli?
A. Uyg'ur, arab B. Qorluq-chigil D.*O'g'uz, g'arbiy adabiy til E. Qipchoq, chig'atoy
9. Sakkokiy asarlarida keluvchi *bikin, yanglig'* so'zlarining ma'nosi?
A. *Kabi, o'xshash B. Barbod, kokil D. Qolma, qilma E. O'xshash, kokil
5. Mustahkamlash:
"Refleksiya" mashqi orqali o'tkazilgan mashg'ulot qayta yodga olinadi.
6. Uyga vazifa: A.Navoiy asarlari matnining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.
7. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

6- mavzu	Alisher Navoiy asarlari matnining lisoniy tahlili
-----------------	--

1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejas:	1. Alisher Navoiy - o'zbek adabiy tilining asoschisi. 2. A. Navoiyning nazmiy asarlari matnining lisoniy tahlili. 3. Navoiy asarlari tilida leksik-grammatik me'yorlar. 4. "Muhokamatul-lg'atayn" matni ustida ishlash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Alisher Navoiy - o'zbek adabiy tilining asoschisi, A. Navoiyning nazmiy asarlari matnining lisoniy tahlili, Navoiy asarlari tilida leksik-grammatik me'yorlar, "Muhokamatul-lg'atayn" matni ustida ishlash orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
-Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili asoschisi ekanligini isbotlovchi savollar orqali bilimlarini sinash; - A. Navoiyning nazmiy asarlari matnining lisoniy tahlilini o'tkazish; - Navoiy asarlari tilida leksik-grammatik me'yorlar xususida munozara tashkil etish; - "Muhokamatul-lg'atayn" matni ustida ishlash;	- savol-javob o'tkazish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadi; - A. Navoiyning nazmiy asarlari matnining lisoniy tahlili orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar; - Navoiy asarlari tilida leksik-grammatik me'yorlar xususida munozara tashkil etish orqali ayrim ma'lumotlarni o'zlashtiradi; - "Muhokamatul-lg'atayn" matni ustida ishlash orqali mavzu haqidagi bilimlarini mustahkamlab oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, kichik guruhlarda ishlash, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda va guruhlarda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya


1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili asoschisi ekanligini isbotlovchi savollar beradi. 3. A. Navoiyning nazmiy asarlari matnining tahlili uchun matn beradi. 3.3. Navoiy asarlari tilida leksik-grammatik me'yorlar xususida munozara tashkil etadi. 3.4. "Muhokamatul-lg'atayn" matni tahlili ustida ishlanadi.	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. A. Navoiyning nazmiy asarlari matnining tahlili ustida ishlaydi. 3.3. Navoiy asarlari tilida leksik-grammatik me'yorlar xususida munozara tashkil etish orqali mavzuga doir ma'lumotlarni birgalikda ko'rib chiqadilar. 3.4. "Muhokamatul-lg'atayn" matni ustida ishlash orqali asarning leksik xususiyatini qoniqarli darajada o'rganishga erishadilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi.. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi.

	4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.
--	---	---

1-ilova

Havoiiy asarlari tilida qo'llangan unlilar miqdori xususidagi qarashlar



2-ilova


Navoiy leksik me'yorlarni belgilashda turli sohalarga tegishli turkiy so'zlarni o'z asarlariga singdirgan. Ushbu qatorlarni davom ettirishga harakat qiling.

1.	Oziq-ovqat nomlari:	<i>ulaba, 'rkamach...</i>
2.	Chorvachilikka oid:	<i>tubuchaq, tay...</i>
3.	Kiyim-bosh nomlari:	<i>dastar, qalpaq...</i>

4.	Ov hayvonlari nomlari:	<i>bug'u, ohu...</i>
----	-------------------------------	----------------------

3-ilova

Alisher Navoiyning fan, madaniyat va ona tili rivojidadagi xizmatlarini quyidagi olim va shoirlar xizmatlari bilan chog'ishtirish mumkin:



6-mavzu. A.Navoiy asarlari matnining lisoniy tahlili

1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

1. Nima uchun Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida e'tirof etiladi?
2. A. Navoiyning tilshunoslik va adabiyotshunoslikka doir qaysi asarlarini bilasiz?
3. OlimlarNavoiy tiliga asos bo'lgan sheva haqida? Z.M.Bobur esa Andijon shevasi asos bo'lgan degan fikrni aytadi.
4. Navoiyning boshqa tillarga munosabati?

2.Tahlil uchun “Muhokamatul-lug'atayn” dan misollar:

Bu alfoz va iboratda bu navъ daqoyiq ko'pdurkim, bu kunga degincha hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilmog'on jihatdin bu yashurun qolibdur. Va hunarsiz turkning sitam zarif yigitlari osonliqqa bo'la forsiy alfoz bila nazm ayturg'a mashg'ul bo'lubturlar. Va filhaqiqat agarkishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chun bu lafzda muncha vusъat va maydonida muncha fushat topilur, kerakkimmunda har nav suxanguzorlig' va fasihgufitorlig' va nazmsozlig' va fasonapardozlig' osonroq bo'lg'ay va voqеъ osonroqdur.

Andin so'ngrakim turk tilining jomeiyatimuncha daloil bila sobit bo'ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo'lgan tabъ ahli salohiyat va tabъlarin o'z tillari turg'och, o'zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga burormasalar erdi. Va agar ikkalasi til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'proq aytsalar erdi va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikkalasi til bila teng aytsalar erdi. Bu ehtimolga xud yo'l bersa bo'lmaskim, turk ulusining xushtabъlari majmui sort tili bila nazm aytqaylar va bikkull turk tili bila aytmag'aylar, balki ko'pi ayta olmag'aylar va aytsalar ham sort turk tili bila nazm aytqondekfasih turklar qoshida o'quy va o'tkara olmag'aylar va o'qusalar har lafzlarig'a uez ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a uez еъtiroz vorid bo'lg'ay.

YAna ulkim, fahm jinsi ojizlarni ham moyil, balki mushtag'il ushbu navъg'a ko'rar va zamon va rasm ahli tariqidin chiqmog'ni munosib ko'rmas va bu navъ bila qolur. Va muhtadiyg'a yana odatdurkim, tabъidin ul nima bosh ursa, chun o'z zodai tabъi o'ziga mahbub ekanga majbuldur, tilarki, ani bu fan ahlig'a arz qilib jilva bergay. CHun bu fan ahli forsigo'yduklar va turk alfozidin bahramand emaslar, tabъi ul jonibdin еъroz qilib, bu fang'a mashg'ul el sari mayl ko'rguzur.

3. Kichik guruhlarda ishlash

Talabalar 6 guruhga bo'linadilar.

- 1-guruh: A. Navoiy va o'zbek adabiy tili;
- 2-guruh: A. Navoiy asarlari tilida leksik-grammatik me'yorlarning belgilanishi;
- 3-guruh: A. Navoiy asarlarida arxaizm va undan foydalanish;
- 4-guruh: Navoiy nazmiy asarlarining tili va uslubi;
- 5-guruh: Navoiy nasriy asarlarining tili va uslubi;
- 6-guruh: “Muhokamatul-lug'atayn” da o'zbek tili tarixi uchun qimmatli fikrlar haqida;

4. Test bilan ishlash:

1. A. Navoiy asarlarida qaysi ot yasovchi qo'shimchalar ko'p qo'llanilgan?
A. –zor, -loq B. –vul, -qi D. *–chi, -vul E. –bon, -do'z
2. «Muhokamatul-lug'atayn»da qaysi tillar solishtiriladi?
A. *Eski o'zbek tili va fors-tojik tili B. Eski o'zbek tili va arab tili
D. Fors tili va arab tili E. A va V javoblar to'g'ri.
3. Omonim va sinonim so'zlarni qaysi shoir sharhlagan?

- A. Bobur B. Munis D. Xorazmiy E. *Navoiy
4. A. Navoiy asarlari tilining tovush tarkibini aniqlashda yagona manba...
A. *O'zining fikri B. Boburning fikri D. Mirxond, Xondamir asarlari E. Hozirgi tadqiqotlar
5. A.Navoiy asarla rida ichmoq fe'liningsinonimi sifatida qaysi so'z qo'llangan?
A *Tamishmoq B Yig'lamoq D Ingramoq E Singramoq.
6. Unli va undosh tovushlarni qattiq va yumshoq turlarga ajratgan shoir?
A Munis B. *Novaiy D. Bobur E. To'g'ri javob berilmagan
7. Fe'l so'z turkumining 100 ta harakat nomi shakllarini keltirgan shoir kim?
A Bobur B. Atoiy D. *Navoiy E. Munis
8. «Turkiy tilda rang- barang shirin ma'noli she'rlarim behad ko'pdir, forsiy she'rlarim ham bebaho
la'lu gavhar larga o'xshaydi». Ushbu misra muallifini toping?
A. Xorazmiy B. *Navoiy D. Bobur E. Atoiy
9. «Muhokamat ul- lug'atayn» da qanday so'zlarning yuztasini sanab o'tilgan?
A. *Sinonimik juftliklarga ega fe'llar B. Sinonim sifatlar D. Omonimik so'zlar
E. Fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari
10. «Ajam shuarosi va fors fusaqosi, har qaysi uslubda kim, so'z arusig'a jilva va namoyish berib
erdilar...» misralari qaysi asardan olingan?
A. *«Muhokamatul lug'atayn». B. «Boburnoma» D. «O'g'uznoma». E. «Shajarayi turk».
11. «Muhokamatul lug'atayn»da keltirilgan kiyim bosh nomlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. O'rkamach, mantu. B. Yabu, tang. D. *Jalak, terlik. E. Maral, qunt.
12. Turk nazmida chu men tortib alam, Ayladim ul mamlakatni yakqalam. Ushbu misralar Navoiyning qaysi asaridan olingan?
A. «Lisonut-tayr» B. «Muhokamatul-lug'atayn» D. *«Xamsa» E. A va B javoblar
5. Mustahkamlash:
“Refleksiya” mashqi orqali o'tkazilgan mashg'ulot qayta yodga olinadi.
6. Uyga vazifa: Z.M.Bobur va Muhammad, Solih asarlari matnining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.
7. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

7- mavzu	Z.M.Bobur va Muhammad Solih asarlari matnining lisoniy tahlili
----------	--

1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejas:	1. XVI asr adabiy tili rivojida Bobur asarlarining o'rnini. 2. Til tarixini o'rganishda "Boburnoma" asarining ahamiyati. 3. Tarixiy dostonchilikda til va uslub muammosi. 4. "Shayboniynoma" matni ustida ishlash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: XVI asr adabiy tili rivojida Bobur asarlarining o'rnini, til tarixini o'rganishda "Boburnoma" asarining ahamiyati, tarixiy dostonchilikda til va uslub muammosi, "Boburnoma" va "Shayboniynoma" matnlari tahlili ustida ishlash orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- XVI asr adabiy tili rivojida Bobur asarlarining o'rnini aniqlovchi savollar orqali tekshirish; - til tarixini o'rganishda "Boburnoma" asarining ahamiyati haqida sinov o'tkazish; - tarixiy dostonchilikda til va uslub muammosi xususida munozara tashkil etish; - "Shayboniynoma" matni ustida ishlash;	- savollarga javob berish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadi; -til tarixini o'rganishda "Boburnoma" asarining ahamiyati haqidagi sinovlarga javob orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar; - tarixiy dostonchilikda til va uslub muammosi xususida tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma'lumotlarni o'zlashtiradi; - "Shayboniynoma" matni ustida ishlash orqali mavzu haqidagi bilimlarini mustahkamlab oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, kichik guruhlarda ishlash, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda va guruhlarda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya


1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. XVI asr adabiy tili rivojida Bobur asarlarining o'rnini aniqlovchi savollar beradi. 3. Til tarixini o'rganishda "Boburnoma" asarining ahamiyati haqida sinov o'tkazadi. 3.3. Tarixiy dostonchilikda til va uslub muammosi xususida munozara tashkil etadi. 3.4. "Shayboniynoma" matni tahlili bilan ishlanaadi.	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. Til tarixini o'rganishda "Boburnoma" asarining ahamiyati haqida fikrlarini bayon qilib, asar matni tahlili ustida ishlaydi. 3.3. Tarixiy dostonchilikda til va uslub muammosi xususida munozara tashkil etish orqali mavzuga doir ma'lumotlarni birgalikda ko'rib chiqadilar. 3.4. "Shayboniynoma" matni ustida ishlab, unung leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganishga erishadilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi.. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi.


	4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.
--	---	---

1-ilova


“Boburnoma”ning chop etilgan nusxalari



“Boburnoma”da qo’llanilgan o’zbekcha
va
fors-tojikcha maqollardan topib kataklarni
to’ldiring



“Shayboniynoma”ning chop etilgan nusxalari



7-mavzu. Z.M.Bobur va Muhammad, Solih asarlari matnining lisoniy tahlili

1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

1. Boburning til soddaligi uchun kurashganligini misollar orqali isbotlang?
2. "Boburnoma"ning nusxalari va turli tillarga tarjimalari haqida fikringiz?
3. "Boburnoma"ning morfologik tabiati haqida ma'lumot bering.
4. "Shayboniynoma" dostonining boshqa dostonlardan farqi?
5. "Shayboniynoma"ning leksik-morfologik tabiati haqida so'zlab bering.

2. Tahlil uchun "Boburnoma" va "Shayboniynoma" dan matnlar:

"Boburnoma" dan:

Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma'muraning kanorsida voqe bo'lubtur. SHarqi Qoshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog'lar, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va YAngi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo'g'ul va o'zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma'mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog' voqes bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish eg'iy kela olmas. Sayhun dar'esikim, Xo'jand suyig'a mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar, Xujandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo SHohruxiyag'a mashhurdur, o'tub yana shimolg'a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyroq bu dar'e tamom qumg'a singar, hech dar'eg'a qotilmas.

Etti pora qasabasi bor; beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonibida. Janubiy tarafidagi qasabalar bir Andijondurkim, vasatta voqe bo'lubtur. Farg'ona viloyatining poytaxtidur.

"Shayboniynoma" dan:

Ishq sahrosida Majnun bo'lg'on,
Dard birla ichu toshi to'lg'on.

SHavq bozorida savdo qilg'on,
Ushbu savdoni tamanno qilg'on.

Hajrning o'tidin joni kuyg'on,
So'zu g'am birla nihoni kuyg'on.

Laqabi Solihu o'zi tolih,
Nur Said o'g'li Muhammad Solih.

Mundoq ayturki, xudodin taqdir,
CHun otam ishig'a berdi tag'yir.

CHiqti Xorazm di'eri qo'lidin,
Xivaqu Kot hitori qo'lidin.

Tushti ondin guzori Marv sari,
Anda sovruldi evu eli bari.

Ayladi no'sh shahodat jomi,
Anga no'sh o'ldi saodat jomi.

Mani gardun sitami qildi etim,
Ayladi kishvari g'am ichra muqim.

Xorliklar bila o'stim bis'er,
Zorlig'lar bila ko'rdum ozor.

Har falokatki, bo'lur dun'eda,
Hech qaysidan eman ozoda.

Gah Xuroson aro qildim manzil,
Gah Samarqandg'a bo'ldum moyil.

Qu'on oyini bila sargardon,
Har nechuk bo'lsa, iorudim har'en.

Xidmat ettim bori mirzolarg'a,
Bandalik andag'i donolarg'a.

3. Kichik guruhlarda ishlash

Talabalar 6 guruhga bo'linadilar.

- 1-guruh: "Boburnoma" da turlanish kategoriyasi;
- 2-guruh: "Boburnoma" da so'z yasalihi;
- 3-guruh: "Boburnoma" ning leksik xususiyatlari;
- 4-guruh: "Shayboniynoma" da turlanish kategoriyasi;
- 5-guruh: "Shayboniynoma"da so'z yasalihi (o'zbekcha, forsha, arabcha shakllar) haqida;
- 6-guruh: "Shayboniynoma"dagi o'zlashmalar, turli terminlarning qo'llanishi;

4. Test bilan ishlash:

1. Qaysi asarda sifat yasovchi –li affiksi uchramaydi?

- A. «O'g'uznoma»da B. *«Boburnoma»da D. «Yusuf va Zulayho»da E. «Me'rojnoma»da.

2. "Har kishi turkiycha aytsa, bir ayog' ichsun." "Boburnoma"da keltirilgan ushbu parcha dagi ayog'so'zi hozirga ada-biy tilda qaysi so'zlar- ga to'g'ri keladi?

- A. Lagan, tog'ora. B.Kosa, piyola, qadah. D. *May, sharob E. To'g'ri javob yo'q.

3. «Marg boyoron surast». Parchada keltirilgan forsiy matalning o'zbekcha varianti qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A. Do'st achitib gapirar, dushman kuldurib. B. Do'st bilan obod uying.
D. *Do'st bilan birga bo'lgan o'lim to'ydir E. Ona yurtning-oltin beshiging

4. «Boburnoma» memuari o'zbek tili tarixini o'rganish uchun muhim manbadir. Ushbu fikr muallifi?

- A. *V.Vohidov B. V.Rametov D. A.Kononov E. S.Malov

5. XV-XVI-asrlarda yaratilgan qaysi asarda so'zlashuv tiliga xos bo'lgan juft so'zlardan umumli foydalanilgan?

- A «Muhokamatul-lug'otayin». B «Muxtasar».
D «Mahbub-ul qulub». E *«Boburnoma».

6. «Boburnoma» ning qo'lyozma nusxasi qancha?

- A 20 ta B. *14 ga yaqin D. 2 ta. E. 8 ta

7. «Boburnoma»da *yumurtqa, bo'rk, yayov* so'zlari hozirgi kunda qanday ma'noni bildiradi?

- A Qaymoq, piyoda, ovqat B. *Tuxum, bosh kiyim, piyoda D. Bosh kiyim, piyoda, ovqat
E. Yumronqoziq, piyoda, qaymoq

8. «Boburnoma» asarida ko'proq qaysi kelishiklar qo'llangan?

- A. Bosh, tushum B Qaratqich. D Jo'nalish E. *Qaratqich, tushum, o'rin-payt, jo'nalish

9. «Boburnoma» ni o'rgangan olimni aniqlang?

- A. *H. Nazarova B. X. Doniyorov D. G. Bladova E. A va V javoblar to'g'ri

10. El ulusa birla borsin ilg'or Kirsin ilg'orga ul mulki diyor. Ushbu misra qaysi asardan olingan?

- A. «Boburnoma» B. «Firdavsul-iqbol» D. *«Shayboniynoma» E. «Shajarai tarokima»

5. Mustahkamlash:

"Refleksiya" mashqi orqali o'tkazilgan mashg'ulot qayta yodga olinadi.

6. Uyga vazifa: A. Bahodirxon, Munis, Turdi, Maxmur asarlari matnining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.

7. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

8- mavzu	A. Bahodirxon, Munis, Turdi, Maxmur asarlari matnining lisoniy tahlili
-----------------	---

1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejasi:	1. “Shajarai turk” asrining tili va uslubi. 2. Munis asarlarining til xususiyatlari. 3. Turdining hajviy asarlari xususida. 4. Maxmurning satira tili va uslubu.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: “Shajarai turk” asrining tili va uslubi, Munis asarlarining til xususiyatlari, Turdining hajviy asarlari xususida, Maxmurning satira tili va uslubu ustida ishlash orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- “Shajarai turk” asrining tili va uslubi borasidagi aniqlovchi savollar orqali bilimlarni tekshirish; - Munis asarlarining til xususiyatlari, ahamiyati haqida sinov o'tkazish; - Turdining hajviy asarlari xususida munozara tashkil etish; - - Maxmurning satira tili va uslubu ustida ishlash;	- savollarga javob berish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadi; - Munis asarlarining til xususiyatlari, ahamiyati haqidagi sinov savollarga javob orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar; - Turdining hajviy asarlari xususida tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma'lumotlarni o'zlashtiradi; - Maxmurning satira tili va uslubu ustida ishlash orqali bilimlarini mustahkamlab oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, kichik guruhlarda ishlash, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar

O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda va guruhlarda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya


1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. "Shajarai turk" asrining tili va uslubi borasidagi aniqlovchi savollar beradi. 3.2. Munis asarlarining til xususiyatlari, ahamiyati haqida sinov o'tkazadi. 3.3. Turdining hajviy asarlari xususida munozara tashkil etadi. 3.4. Maxmurning satira tili va uslubi ustida ishlanadi.	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. Munis asarlarining til xususiyatlari, ahamiyati haqida fikrlarini bayon qilib, asar matni tahlili ustida ishlaydi. 3.3. Turdining hajviy asarlari xususida munozara tashkil etish orqali mavzuga doir ma'lumotlarni birgalikda ko'rib chiqadilar. 3.4. Maxmurning satira tili va uslubi ustida ishlab, unung leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganishga erishadilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi.. 4.2. O'quv jarayonida	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida


	ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.
--	---	---

1-ilova

«Shajarai turk» asarining yettitadan ortiq qo'lyozma nusxasi mavjud




«Shajarai turk» turli tillarga tarjima qilinadi va
nashr etiladi



2-ilova

Abulg'ozi Bahodirxon «Shajarai turk» asari haqida:



4-ilova

Turdi asarlarining morfologik xususiyatlari

Qaratqich kelishigi		
Tushum kelishigi		
Chiqish kelishigi		
Jo'nalish kelishigi		
Aniq o'tgan zamon fe'lining birinchi shaxs birligi		
Hozirgi kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli ba'zan		
Sifatdosh yasovchi		

5-ilova

Munis asarlarining til xususiyatlari

Qaratqich kelishigi		
Tushum kelishigi		
Chiqish kelishigi		
Jo'nalish kelishigi		
Kelasi zamon fe'li		
O'tgan zamon ravishi shakli ham uchraydi.		
Sifatdosh va o'tgan zamon fe'l shakllari		

8-mavzu. A. Bahodirxon, Munis, Turdi, Maxmur asarlari matnining lisoniy tahlili

1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

1. “Shajarai turk” ning nusxalari va turli tillarga tarjimalari haqida fikringiz?
2. “Shajarai turk”da til soddaligi uchun kurashilgan, misollar orqali isbotlang?
3. “Shajarai turk”ning fonetik tabiati haqida ma’lumot bering.
4. Munis yashagan davr va asarlarining tili haqida fikringiz?
5. Turdi asarlar tilida xalqona unsurlarning aks qitishi haqida so’zlab bering.
6. Maxmur satiralarining tili va uslubi to’g’risida gapiring.

2. Tahlil uchun matnlar:

Tor ko’ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To’qson ikki bo’li o’zbek yurtidur, tenglik qiling.

Birni Qipchoq-u Xito-yo, birni Yuz, Nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming son bo’lib, bir xon o’yinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to’ng’a kirib,
Bir o’ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo, englik qiling.

Kim qo’yibdur uhdai o’z mulkingizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to’rt davvosinetmakni ko’tahlik qiling.

Mardlar maydon chekib, rangin ko’tarib zaxmlar,
Sizga yo’q, ul javharu yuzga upo-englik qiling.

Eyjahondori zafar, kavkabai davri falak,
Go’sh qil, qissai qishlog’i xarobi Hapalak.

Turfa qishlog’i g’azabkardaki, parandalari,
Tovug’i ignachi-yo, o’rdag- u g’ozi – kapalak.

Boru yo’q uylarini banda baen gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch olachuk, to’rt katalak.

Dema uy, balki zaminkandur agar kirsam kishi,
Har taraf betiga urgaylar aning ko’rshapalak.

Xalqini ko’rsang agar o’lasi-yo qoqu xarob,
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak.

Ajirig’ tomirini ug’urida mayda tuyib,
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.

Gar tahorat qilsa kavmi suv topolmay nochor,
Betini qumla yovib, ketiga surgay guvalak.

Ey falakqadru adolatshiami mulki malak
Marhamat chog’ida rahm ayla ba holi Hapalak.
Kecha go’ë eshitib shuhrati tillo pulini,
Hapalak qurqusidan uchti misoli kapalak.

Himmating yo’lida bir kecha karomat qilg’il,
Kapalak boz qo’nub, joyiga bo’lgay Hapalak.

3. Kichik guruhlarda ishlash

Talabalar 6 guruhga bo’linadilar.

- 1-guruh: Muallif “Shajarai turk”ni boshqa asarlardan farqli ekanligini bir necha o’rinda ta’kidlagan;
- 2-guruh: “Shajarai turk”ning fonetik va morfologik xususiyatlari;
- 3-guruh: Munis asarlaridagi grammatik shakllar;
- 4-guruh: Turdi she’rlarining leksik-grammatik xususiyatlari;
- 5-guruh: Turdi she’rlariga xalq jonli tili va ozarbayjon tili ta’siri;
- 6-guruh: Maxmur asarlarida badiiy uslub va sheva so’zlarining qo’llanilishi;

4. Test bilan ishlash:

1. A. Bahodirxon asarlarida uchraydigan *ulus, tilmoch, ushoq* so’zlari qanday ma’no anglatadi?
A. Bo’lim, qishloq, nima B. *Xalq, tarjimon, mayda D. Mayda, bo’lim, qishloq
E. Tarjimon, qishloq, mayda
2. Munis asarlari tilida qaratqich kelishigi qo’shimchalari qanday tarzda qo’llangan?
A. *-ning/-ning, -nun/-ing B. -ning, -ni. D. -nun/ -ing E. A va V javoblar to’g’ri.
3. «Shajarai turk» asari orqali qaysi davr tilini o’rganish mumkin?
A. *XVI-XVII B. XV-XVIII D. XIII-XV E. XV-XVI
4. «Shajarai turk» asari kim tomonidan o’rganilgan?
A. Radlov B. Tabbert D. Malov. E. *Kersh.
5. «Shajarayi turk» kim tomonidan ilmiy hayotga tadbiq qilingan?
A V.Reshetov B A.N.Kononov. D *Tabbert E Baskakov.

5. Mustahkamlash:

“Refleksiya” mashqi orqali o’tkazilgan mashg’ulot qayta yodga olinadi.

6. Uyga vazifa: A. Bahodirxon, Munis, Turdi, Maxmur asarlari matnining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.

7. Baholash: Mashg’ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

9- mavzu	“Zarbulmasal” asarining lisoniu tahlili
-----------------	--

1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejas:	1. Qoqon adabiy muhiti haqida. 2. Gulxaniy asarlarining tili va uslubi. 3. “Zarbulmasal”ning morfologik va leksik tabiati. 4. “Zarbulmasal” matni ustida ishlash.
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Qoqon adabiy muhiti haqida, Gulxaniy asarlarining tili va uslubi, “Zarbulmasal”ning morfologik va leksik tabiati,	

“Zarbulmasal” matni ustida ishlash orqali o’tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O’quv faoliyatining natijalari
- Qoqon adabiy muhiti va bu davr ijodkorlari haqidagi savollar orqali bilimlarini tekshirish; - Gulxaniy asarlarining tili va uslubi haqida sinov o’tkazish; - “Zarbulmasal”ning morfologik va leksik tabiati xususida kichik guruhlarda munozara tashkil etish; - “Zarbulmasal” matni ustida ishlash;	- savollarga javob berish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadi; - Gulxaniy asarlarining tili va uslubi haqidagi sinovlarga javob orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar; - “Zarbulmasal”ning morfologik va leksik tabiati xususida kichik guruhlarda tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma’lumotlarni o’zlashtiradi; - “Zarbulmasal” matni ustida ishlash orqali mavzu haqidagi bilimlarini mustahkamlab oladi;
O’qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster
O’qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O’qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda va guruhlarda ishlash
O’qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta’minlangan auditoriya


1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg’ulotni “Termometr” mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. “Ma’naviyat daqiqasi” o’tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma’lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O’quv faoliyatini baholash mezonlarini ma’lum qiladi.	2.1. Mashg’ulot etaplaridagi faoliyatiga ko’ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. Qoqon adabiy muhiti va bu davr ijodkorlari haqida bilimlarini	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga

	tekshirvchi savollar beradi. 3. Gulxaniy asarlarining tili va uslubi haqida sinov o'tkazadi. 3.3. "Zarbulmasal"ning morfologik va leksik tabiati xususida kichik guruhlarda munozara tashkil etadi. 3.4. "Zarbulmasal"matni tahlili bilan ishlanadi.	savollar beradilar. 3.2. Til tarixini o'rganishda Gulxaniy asarlarining ahamiyati haqida fikrlarini bayon qiladilar. 3.3. Tarixiy dostonchilikda til va uslub muammosi mavzuga doir munozara tashkil etish orqali ma'lumotlarni birgalikda ko'rib chiqadilar. 3.4. "Zarbulmasal"matni ustida ishlab, unung leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganishga erishadilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi.. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.

1-ilova

Qoqon adabiy muhitidagi ijodkorlar:



2-ilova

Gulxaniy asarlari tilida o'z va o'zlashgan qatlam



9-mavzu. "Zarbulmasal" asarining lisoniy tahlili

1. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

1. Qoqon adabiy muhitidagi ijodkorlar haqida ma'lumot bering?.

2. Gulxaniy asarlarining tili va uslubi haqida to'xtaling.
3. "Zarbulmasal"ning morfologik tabiati xususida to'xtaling.
4. "Zarbulmasal" ning leksik tabiati qanday?
5. "Zarbulmasal"da folklorning ommaviy janridan foydalanish masalasi?

2. "Zarbulmasal" matni ustida ishlash.

Kabutar bilan zog'

Hakimi hoziq bir gulistoni ruhafzog'a doxil bo'ldi. Ko'rdiki, bir shox uzasinda kabutar ila zog' nishast qilib o'turubdur. Ikkisi bir-biriga vahshat bila nazar qilur, ulfati borar kelmas. SHul asnoda mehmonsarani oldida bir joy bor erdi – ikkisi suv ichmoqqa qasd qildi. Mehmonsaraning ichida bir rustoi azbaroyi sayd o'qun sozlab, muntazir o'turub erdi. Zog' daraxtdan parvoz qilib, eshikni to'g'risig'a tushdi. Zog'din rustoi o'qin otib o'tkardi, qushig'a em qildi. Kabutar parvoz qilib sihat ketti. Agar zog' o'z jinsi birla sahroda va ë juvaripoyadp va ë eski xirmormonlarda iorsa erdi, o'q zahmini eb, qushg'a em bo'lmas erdi.

Tuya bilan bo'taloq

Bor edi Farg'onada bir sorbon,
 Tevasi bor erdi, tug'ub nogahon.
 Ahli aëli ani bor erdi cho'x,
 Ozuqadin kulbasida narsa yo'x.
 Hosili dunë edi bir tevasi,
 Emadig'on orqasidan bo'tasi.
 Bir kuni u tevasini qumladi,
 Ortadig'on ioklarini jo'mladi.
 Yuklari erdi og'iru yo'l yiroq,
 O'rtadi toyloqini nori firoq.
 Fasli tamuz erdi, havo cho'x issig',
 Yo'lda temurdek edi, qumlar qiziq.
 Och o'tina kuydi anodin judo,
 Modarini mehrida erdi ado.
 Jahd ila etmay anosin keynidin,
 Qumda kuyardi g'ami ul siynadin.
 Og'di yuki yo'lda o'shal sarbon,
 Erga cho'kurdi tuzatay deb ravon.
 Qoldi horib anosi orqasidin,
 Èndi haroratlari yag'mosidin.
 Yuzlanib aytdi: "aë berahm enam,
 Ko'ydi-yu, èndi-ïo tutashti tanam.
 Asta iorusang bo'lur, man etay,
 Tashna bo'lub hordim-u qoldim, emay".
 Aydi anosi balosig'a boqib,
 Ko'zlarini ëshlari suvdek oqib:
 "Ko'rki, burunduq kishini qo'lida,
 Bu kishini ko'zlari o'z yo'lida.
 Manda agar zarra kabi ixtiër-
 Bo'lsa edi, bo'lmas edim zeri bor".

3. Kichik guruhlarda ishlash

Talabalar 6 guruhga bo'linadilar.

- 1-guruh: Gulxaniy asarlarining tili;
- 2-guruh: "Zarbulmasalning"ning fonetik va morfologik xususiyatlari;
- 3-guruh: Gulxaniy asarla dagi sinonimso'zlardan foydalanish;
- 4-guruh: "Zarbulmasalning" leksik-grammatik xususiyatlari;

- 5-guruh: Turdi she'rlariga xalq jonli tili va ozarbayjon tili ta'siri;
6-guruh: Maxmur asarlarida badiiy uslub va sheva so'zlarining qo'llanilishi;

4. Mustahkamlash:

“Refleksiya” mashqi orqali o'tkazilgan mashg'ulot qayta yodga olinadi.

5. Uyga vazifa: Muqimiy. Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar asarlari matnining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.

6. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

10- mavzu	Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar asarlari matnining lisoniy tahlili
------------------	---

1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejasi:	1. O'zbek adabiy tili rivojida Muqimiyning xizmatlari. 2. Furqatning o'zbek adabiy tili rivojidagi roli. 3. Zavqiy asarlarining tili va uslubi. 4. Til taraqqiyotida Avaz O'tarning o'rni. 5. Ijodkorlar asarlari matni ustida ishlash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'zbek adabiy tili rivojida Muqimiyning xizmatlari, Furqatning o'zbek adabiy tili rivojidagi roli, Zavqiy asarlarining tili va uslubi, til taraqqiyotida Avaz O'tarning o'rni, ijodkorlar asarlari matni ustida ishlash orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- o'zbek adabiy tili rivojida Muqimiyning xizmatlari va asarlarining o'rni aniqlovchi savollar orqali bilimlarini tekshirish; - Furqatning o'zbek adabiy tili rivojidagi roliga doir sinov o'tkazish; - Zavqiy asarlarining tili va uslubi xususida munozara tashkil etish;	- savollarga javob berish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadi; - Furqatning o'zbek adabiy tili rivojidagi roliga doir sinovlarga javob orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar; - Zavqiy asarlarining tili va uslubi xususida tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma'lumotlarni

- til taraqqiyotida Avaz O'tarning o'rni to'g'risida fikrlarini so'rash; - ijodkorlar asarlari matni ustida ishlash;	o'zlashtiradi; - til taraqqiyotida Avaz O'tar asarlarining o'rni to'g'risida fikrlarini bayon etadilar; -ijodkorlar asarlari matni ustida ishlash orqali mavzu haqidagi bilimlarini mustahkamlab oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, test, kichik guruhlarda ishlash, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda va guruhlarda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.) savollar orqali bilimlarini tekshirish; - sinov o'tkazish; - munozara tashkil etish; - sh; matni ustida ishlash;	3.1. o'zbek adabiy tili rivojida Muqimiyning xizmatlari va asarlarining o'rni aniqlovchi savollar beradi. 3.2. Furqatning o'zbek adabiy tili rivojida roli va asarlarining ahamiyati haqida sinov o'tkazadi. 3.3. Zavqiy asarlarining tili va uslubi xususida munozara tashkil etadi. 3.4. Til taraqqiyotida Avaz	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. Furqatning o'zbek adabiy tili rivojida roli va asarlarining ahamiyati haqida fikrlarini bayon qiladilar. 3.3. Zavqiy asarlarining tili va uslubi xususida munozara tashkil etish orqali mavzuga doir ma'lumotlarni birgalikda ko'rib chiqadilar. 3.4. Til taraqqiyotida Avaz

	O'tarning o'rni to'g'risida fikrlarini so'raydi. 3.5. Ijodkorlar asarlari matni tahlili bilan ishlanadi.	O'tarning o'rni to'g'risida fikrlarini bayon etadilar. 3.5. Asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganishga erishadilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.


1-ilova

Muqimiyda so'z tarkibida bir tovushni boshqa bir tovush bilan almashinishi kuzatiladi, shunday holatlarga misol toping:

q-x almashinishi:	Bo'lsa shu yaxshi debki ma <u>x</u> tag'aning. Nigoh kayfi uch <u>k</u> ay, kelsa agar tara <u>x</u> lab.
ch-sh almashinishi:	...
b-m almashinishi:	...
m-n almashinishi:	...
y-g' almashinishi:	...

2-ilova

Furqat asarlarida ijtimoiy hayot, fan, madaniyat, iqtisodiy turmushni ifodalovchi ruscha so'zlar qo'llangan o'rinlarni toping:



10-mavzu. Muqimiy. Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar asarlari matnining lisoniy tahlili

1. Mavzu yuzasidan savol-javob:

1. Muqimiy asarlarining til xususiyatlari haqida qanday ma'lumotga egasiz?
2. Furqat ma'rifatparvar shoir ekanligini qanday izohlaysiz?
3. Zavqiy asarlarining uslubi va o'ziga xos jihatlari xususida to'xtaling.
4. Avaz O'tar asarlarida A. Navoiy an'analari qanday shaklda o'z aksini topgan?

2. Matnlar tahlili:

To'y (Muqimiy)

Eshiting bir hikoya Iqondin,
To'y nochor qildi elg'ondin.
Xo'jayin berdi Toshkentdin til.
"To'y qilar bo'lsang, qo'y o'zinga kafil.
Man rizomas kishiga non bersang,
Yo tovuq saqlasangu don bersang,
Tuynugingdan agarda chiqsa tutun,
Munda ber dastmoylarni butun.
Bo'lsa umidingiz agar bizdin
Manfaat ko'rmasin birov sizdin".
Ushbu mazmunda qoqdi sim xo'jayin,
SHod bo'lub er, xotin dedi: "O'layin!"
Sof niyat suviki loylansa,
Ne ajab xayr eshigi boylansa.

Toshkand shaharidagi vistavka xususida (Furqat)

O'rusidur bu sam'at xoh farangi
Uchar nozukshunos odamni hangi.
Bu yanglig' ko'p tag'i nodir hunarlar,
Bahosig'a etishmas simu zarlar.
CHunonchi ikki fonus, ahli hikmat

Yasabdurlar qilib izhor samʼat.
 Yonar befilta, begugurt, beëgʻ,
 Anga bir sim ishorat aylagan chogʻ.
 Yoʻq ammo lampa yangligʻ anda soya,
 SHuoyi bogʻ aro aylar kifoya.
 Emastur sham rangi shuʼlasi oq,
 Latofatda yana andin mahinroq.
 Tamosho aylagan oni xaloyiq
 Dedilar: har na oʻz aqligʻa loyiq.
 Dedilar baʼzikim: “Bir misgʻa doru
 Surubdur ul ʼnar boʻlsa qorongʻu”.
 Dedilar baʼzikim: “Pulskadin tos,
 Anga band aylamish bir dona olmos,
 Oʻshal olmos shom oʻlganda birdan,
 Berib shuʼla qilur koʻb erni ravshan”
 Mani fahmimda, barqi telegrom ul,
 Yonar doru bilan boʻlganda shom ul.
 Nechunkim siym bogʻlab bib-birigʻa,
 Stun quymishlar oning har erigʻa.
 Ishorat aylasa simning uchidin,
 Kelur barq anda doruning kuchidin.
 Koʻrub samʼat bu yangligʻ hayrat oyin,
 Qoʻlin tishlab xaloyiq qildi tahsin

3. Kichik guruhlarda ishlash:

Talabalar 6 guruhga boʻlinadilar.

- 1-guruh: Muqimiy asarlarida soʻzlashuv nutqi unsurlari;
- 2-guruh: Muqimiy ijodiga eski oʻzbek tilining taʼsiri;
- 3-guruh: Muqimiy leksikasiga rus tilining taʼsiri;
- 4-guruh: Furqat ijodida eski oʻzbek tiliga xos shakllar;
- 5-guruh: Zavqiy asarlarida xalq tiliga xos shakllar;
- 6-guruh: A. Oʻtar asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlari;

4. Test bilan ishlash:

1. Muqimiy asarlariga xos boʻlgan shakllar qaysilar?
 A. *erur, -dur B. -man, uyurmoq D. -mish, oʻlmoq E. Barcha javoblar toʻgʻri
2. «Zilziladin lahzada shundogʻ shahar...» qanday almashinish yuz bergan?
 A. n-m B. h-z D. m-n E. *y-gʻ
3. A. Oʻtar asarla rida ravishdosh -ib affiksi oʻrnida yana qanday affikslar qoʻllangan?
 A. -ila, -ali, -gʻa B. *-ub, -ibon, -ubon D. -din, don, -gan E. Toʻgʻri javob yoʻq
4. A.Oʻtar asarla rida joʻnalish kelishigi -ga affiksi oʻrniga qaysi affikslar dan foydalangan?
 A. -da, -dan B.- ni, -ib D. *-ga, -a E. Toʻgʻri javob yoʻq

4. Mustahkamlash:

“Refleksiya” mashqi orqali oʻtkazilgan mashgʻulot qayta yodga olinadi.

5. Uyga vazifa: Milliy istiqlol davri oʻzbek adabiy tili matnlarining lisoniy tahlili mavzusiga tayyorlanib kelish.

6. Baholash: Mashg'ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.

11 - mavzu	Milliy istiqlol davri o'zbek adabiy tili matnlarining lisoniy tahlili.
------------	--

1.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vahti - 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotining rejasi:	1. Milliy istiqlol davrida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor. 2. Istiqlol davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar. 3. Bu davrda tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari. 4. Istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: milliy istiqlol davrida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor, istiqlol davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar, bu davrda tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari, istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari va matnlar ustida ishlash orqali o'qilgan mavzuni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- milliy istiqlol davrida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor haqidagi bilimlarini savollar orqali	- savollarga javob berish orqali mavzu yuzasidan bilimlarini namoyon etadilar;

tekshirish; - istiqlool davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar haqida sinov o'tkazish; - bu davrda tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari xususida munozara tashkil etish; - istiqlool yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari va matnlar ustida ishlash;	- istiqlool davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar haqidagi sinovlarga javob orqali olgan bilimlarini mustahkamlaydilar; - bu davrda tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari xususida tashkil etilgan munozara orqali ayrim ma'lumotlarni o'zlashtiradilar; - istiqlool yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari va matnlar ustida ishlash orqali mavzu haqidagi bilimlarini mustahkamlab oladilar;
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda va guruhlarda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya


1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (3 min.)	1.1. Mashg'ulotni "Termometr" mashqi orqali tashkil etadi. 1.2. "Ma'naviyat daqiqasi" o'tkaziladi.	1.1. Kayfiyatlari haqida ma'lumotlar beradilar. 1.2. Dunyo va respublikamizdagi yangiliklar tinglanadi.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (2 min.)	2.1. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Mashg'ulot etaplaridagi faoliyatiga ko'ra ball oladi, baholanadi.
3-bosqich. Asosiy (65 min.)	3.1. Milliy istiqlool davri adabiy tiliga bo'lgan e'tibor haqida aniqlovchi savollar beradi. 3.2. Istiqlool davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar haqida sinov o'tkazadi. 3.3. Bu davrda tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari xususida munozara	3.1. Javob beradi, aniqlik kiritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir-biriga savollar beradilar. 3.2. Istiqlool davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar haqida fikrlarini bayon qildilar. 3.3. Bu davrida tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari xususida

	tashkil etadi. 3.4. Istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari va matnlar matni tahlili bilan ishlanadi.	munozara tashkil etish orqali mavzuga doir ma'lumotlarni birgalikda ko'rib chiqadilar. 3.4. istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari va matnlar ustida ishlab, unung leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganishga erishadilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. "Refleksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va xulosa yasaydi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarning barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar, tayyorlanib keladilar.


1-ilova

Men o'qigan istiqloldan avvalgi va keyingi davr asarlari



2-ilova

Bugungi kun ijodkorlariga siz bergan o'rin?



“Bugungi mashg’ulot xulosasi” mashqi:

Har bir talaba qoliga quyidagi jadval berilib, uni to’ldirib berishlari talab etiladi.

Qanday yangiliklarni bilib oldim?	Men uchun ahamiyatli tomoni?	Bu yangilikning kelgusida qanday foydasi bor?

--	--	--

11-mavzu. Milliy istiqlol davri o'zbek adabiy tili matnlarining lisoniy tahlili.

1. Mavzu yuzasidan savol-javob:

1. Milliy istiqlol davri o'zbek adabiy tili xususiyatlari haqida so'zlang.
2. Istiqlol davri o'zbek adabiy tili leksirasini qanday izohlaysiz?
3. Ikki imlo qoidasi va uning o'xshash va farqli jihatlari xususida to'xtaling.
4. Istiqlol davri o'zbek adabiy tilida eski adabiy til an'analari qanday shaklda o'z aksini topgan?

2. Matnlar tahlili:

Har bir talaba bugungi kundagi va 1970-1980 yillarda yaratilgan asarlardan olib keladi, asarlar tilidagi o'xshash va farqli jihatlar solishtiriladi.

3. Kichik guruhlarda ishlash:

Talabalar 5 guruhga bo'linadilar. Quyidagi mavzular bo'yicha guruhlarda ishlaydilar.

- 1-guruh: Fonetik tamoyil;
- 2-guruh: Morfologik tamoyil;
- 3-guruh: Tarixiy –an'anaviy tamoyil;
- 4-guruh: Etimologik tamoyil;
- 5-guruh: Differensial yoki farqlash tamoyili;

4. “Bugungi mashg'ulot xulosasi” mashqi:

Har bir talaba qoliga quyidagi jadval berilib, uni to'ldirib berishlari talab etiladi.

Qanday yangiliklarni bilib	Men uchun ahamiyatli	Bu yangilikning kelgusida
----------------------------	----------------------	---------------------------

oldim?	tomoni?	qanday foydasi bor?

4. Mustahkamlash:

“Refleksiya” mashqi orqali o’tkazilgan mashg’ulot qayta yodga olinadi.

5. Uyga vazifa: Barcha o’tilgan mavzularni takrorlash va yakuniy nazoratda bo’ladigan yozma ishga tayyorlanib yurish.

6. Baholash: Mashg’ulotda qatnashgan barcha talabalar reyting asosida baholanadilar.